



MAKTABLARDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS O'TISHNI QO'LLASH

Shariyev Orif Fozilovich

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti
"Ta'lim tarbiya nazariyasi va metodikasi"
(Texnologik ta'lim) yo'nalishi
1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5725981>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: -10 Noyabr 2021
Ma'qullandi: 15- Noyabr 2021
Chop etildi: 20 - Noyabr 2021

KALIT SO'ZLAR

«pedagogik texnologiya»,
«ta'lim texnologiyasi»,
«o'qitish texnologiyasi»,
«texnos» (techne)

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va ularga moyil bo'lishlariga va fe'l-atvorning xilma-xilligiga qaramay, o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, kuzatishga, xulosa chiqarishga o'rgatish va maktablarda yangi texnologiyalar asosida dars o'tishni bosqichma-bosqich qo'llash kabi masalalarga o'z yechimini topadi.

Kirish. Pedagogika fani va amaliyotida «pedagogik texnologiya», «ta'lim texnologiyasi», «o'qitish texnologiyasi» kabi atamalardan keng foydalanilmoqda. Shu bilan birga ularni tushunish paytida alohida fikrlar mavjud. Avvalambor, «texnik texnologiya» va «pedagogik texnologiya» tushunchalarining mohiyatini aniqlaylik.

«Texnologiya» - yunoncha ikki so'zdan - «texnos» (techne) - mahorat, san'at va «logos» (logos) - fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Bu ifoda zamonaviy texnologiya jarayonini to'liq tavsiflab berolmaydi.

Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli

amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Assosiy qism. Ushbu tushunchalarni o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi (talaba)larga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni intensiv tarzda shakllantiruvchi ijtimoiy xodisa, deb ta'riflash mumkin. O'zbekiston Respublikasi *Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga* muvofiq ta'lim muassasalarini maxsus tayyorlangan pedagogik kadrlar bilan ta'minlash, ularning ish jarayonida raqobatga asoslangan muhitni yuzaga keltirish, o'quv-tarbiya jarayonini sifatli o'quv adabiyotlari bilan va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash kabi masalalarni amalga



oshirishni nazarda tutadi. Ushbu vazifalarni amalda bajarish har bir ta'lim muassasasining bevosita burchi hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik texnologiyalarni muvaffaqiyatli ravishda tadbqiq etish har bir fan o'qituvchisining maxsus bilim va ko'nikmalarga hamda pedagogik amaliyotda zarur bo'ladigan metodik tayyorgarlikka ega bo'lishini taqozo etadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, pedagogik texnologiya atamasining o'ziga ham shu soha bo'yicha izlanishlar olib borgan har bir olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Masalan: "Pedagogik texnologiya psixologik va pedagogik o'gitlar yig'indisi bo'lib, shakllar, metodlar, usullar, o'qitish yo'llari, tarbiyaviy vositalarning maxsus to'plamidir. Ayni zamonda u pedagogik jarayonni tashkiliy metodik omilini ham bildiradi" (V.Lixachev). [1]¹

Pedagogik texnologiyaning asosiy tushunchasi, so'z siz, o'quv jarayoniga tizim sifatida yondashishdir. Bunda ta'lim-tarbiyada ishtirok etuvchi barcha narsa va hodisalar o'zaro funksional bog'liqda bo'lib, bir butunlikni, ya'ni pedagogik jarayon majmuini tashkil qiladi. Pedagogik jarayon majmuini muayyan bir vaqt mobaynida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi pedagogik texnologiya deyiladi.

O'zbekistonlik pedagog olim L.V. Golish ta'lim texnologiyasini texnik texnologiyadan kelib chiqqan holda uch xil atamasini ifodalab bergan:

Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni butunligicha aniqlovchi tizimli kategoriya. Texnologiyalarning barcha tushunchalarini belgilash uchun, sinonim sifatida ta'lim

texnologiyasi, o'qitish texnologiyasi kabilarni ishlash mumkin.

O'qitish texnologiyasi – birinchidan, pedagogik texnologiyani jarayonli harakat aspektini anglatadi. Bu ta'lim jarayonini o'zgaruvchan sharoitlarda, ajratilgan vaqt davomida istiqbollashtirilgan natijalariga kafolatli erishishga va konkret ta'lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishni instrumental ta'minlovchi usul va vositalar (texnologik operatsiyalar) ning tartibli birligini o'zida mujassamlashtirgan ta'lim modulini ishlab chiqish va amalga oshirishning texnologik jarayoni; ikkinchidan, pedagogik texnologiyaning jarayonli – bayonli aspektini ifodalaydi. Bu maqsadni amalga oshirish va istiqbolda belgilangan natijalarga erishish bo'yicha pedagogik hamda o'quv faoliyatini loyihalashtirish bayonidir.

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi. Boshlang'ich ta'lim umumta'lim maktablarining bosh bo'g'ini bo'lgani sababli ana shu jarayonda o'quvchi shaxsining mukammal rivojlanib borishiga ko'proq e'tibor berish lozim. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mas'uliyatlari cheksizdir. Ular maktab ostonasiga endigina

¹ Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston

yo'zuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.



qadam qo'yg'an o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga yo'l ochib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari ana shu davrda shakllanadi.²[2]

"Pedagogik texnologiya – o'quv jarayonini amalga oshirishning mazmunli texnikasi"(V.P.Bespalko). [3-6] "Pedagogik texnologiya-rejalashtirilgan o'qitish natijalariga erishish jarayoni tavsifi"(I.P.Volkov).

"Pedagogik texnologiya-talaba va o'qituvchining ularga zarur sharoit yaratish orqali o'quv jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish hamda o'tkazish bo'yicha ular pedagogik faoliyatining har tomonlama o'ylangan modelidir"(V.M.Monaxov). [7-10] "Pedagogik texnologiya - pedagogik maqsadlarga erishishda foydalaniladigan shaxsiy imkoniyatlar, jihozlar va metodologik vositalarda amalda bo'lishining tizimli yig'indisi va tartibini bildiradi"(M.V.Klarin). [11-12]

"Pedagogik texnologiya-o'zida turli mualliflar(manbalar)ning barcha ta'riflari mazmunini qamrab oluvchi mazmuniy umumlashma hisoblanadi."(G.K.Selevko). [13-15] Shunday qilib, bu ta'riflardan ko'rinadiki hozircha bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan.

Ushbu ta'riflar orasida YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif maqsadga muvofiq sanaladi. Unga ko'ra: "Pedagogik texnologiya-o'qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir. Bu

ta'riflar tahlilidan ko'rinadiki, pedagogik texnologiya natijani qo'lga kiritish uchun ta'lim doirasida zarur bo'lgan vositalar tizimini rejalashtirish va tadbiq etish degan xulosaga kelish mumkin

Pedagogik texnologiya — bu ta'lim shakllarining samaradorligini oshirish vazifasini qo'yadigan texnik va shaxsiy resurslarni va ularning bog'liqligini hisobga olgan holda, o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning butun jarayonini yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli usuli. Ta'limni takomillashtirishda zamonaviy bilimlarga yo'l ochish pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kunning asosiy talablaridan biridir. Mustaqil O'zbekistonimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish uni yangi davlat ta'lim standartlari asosida o'rnatishga qaratilgan. Hozirgi kunda o'qituvchining faoliyati, uning pedagogik mahoratiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'quv jarayonida ishlaydigan o'qituvchilarning pedagogik tafakkurida boshlangan pedagogik texnologiya darslari protsesslarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar o'qituvchilar uchun juda zarurdir. Bu hamkorlik asosida O'quvchilarning faolligini oshirish uchun maxsus ishlab chiqilgan: o'quvchilarga boshqalarning fikrlarini eshitish, tushunish, hurmat qilish, boshqalarning manfaatlarini hisobga olish, ularni o'rgatish, ularga ta'sir qila olish. Tushunish, idrok etish, o'zini o'zi boshqarish, fikrni aniq, aniq va batafsil tushuntirish qobiliyatiga, interfaol o'qitish usullari, o'z-o'zini va boshqalardan foydalanish "Men" tezda rivojlanadi va ijobiy samara beradi. O'qitishda interfaol metodlardan foydalangan holda

² Pedagogika va psixologiya sohalaridagi innovatsiyalar boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari 10-bet

Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)– Qarshi: 2011.



O'quvchilar o'rtasida raqobat muhiti yaratildi, bu O'quvchilarning oldinga siljishiga imkon berdi, natijada O'quvchilar birgalikda o'rganishni boshladilar. Har qanday interfaol usul O'quvchilarni to'g'ri va maqsadli ishlatganda mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Yangi pedagogik texnologiya — bu o'qituvchi asosiy javobgar shaxs bo'lgan ta'lim tizimining ratsional usullarini ishlab chiqaradigan jarayon. Chunki uning asosiy vazifasi o'quvchilarga tezkor, aniq va tushunarli tarzda ma'lumot berishdir.

O'quvchilar yangiliklarni qabul qilishlari va ularga moyil bo'lishlariga va fe'l-atvorning xilma-xilligiga qaramay, o'qituvchi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, kuzatishga, xulosa chiqarishga o'rgatishi kerak. Bunda o'quvchi asosiy harakatlantiruvchi kuchdir, o'qish, o'qish, chizmalar chizish, proektsiyalarning formulalarini tushunish, bir-biri bilan do'stona munosabatda bo'lish, oldida turgan muammolarni hal qilishda bir-birlariga yordam berish ularning asosiy vazifasidir. Ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar va yangilanishlar nafaqat o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarni beribgina qolmay, balki yoshlarimizni jamiyat, davlat, tabiatga munosabati bilan vatanparvarlik g'oyalari ongi va qalbiga singdirishni ta'minlaydi. o'ziga va boshqa odamlarga.³[2]

Odatda pedagogik texnologiyalarni uchta darajasi mavjud deb aytiladi.

1. Umumiy metodik daraja. Umumiy pedagogik (umumdidaktik, umumtarbiyaviy) darajada pedagogik texnologiyaning umumiy qonuniyatlari, konseptual asoslari, o'qituvchi va

o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. Xususiy metodik daraja. Bu darajada muayyan bir o'quv fani yoki kursini o'qitish jarayonining maqsadi va vazifalarini amalga oshirish maqsadida ta'lim mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda foydalanadigan o'qitish metodlari, vositalari va shakllarining majmuasi tushuniladi.

3. Lokal (modul) daraja. Bu darajada ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismida yoki bosqichida xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadni hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi.

Bu darajalar bir-birini to'ldiradi va umumiy bog'lanishga ega.

Hozirgi vaqtda jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi ta'lim tizimida qo'llanilib kelinayotgan va didaktikada ishlab chiqilgan pedagogik texnologiyalar shaxsga yo'naltirilganligida, ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishda, shaxsga bo'lgan munosabatida ko'rinadi. Davr talabiga ko'ra ta'lim tizimida hukmronlik qilayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirishga qaratilayotganligini ta'kidlash kerak. Hozirgi zamon ta'lim tizimida yetakchi rol o'ynayotgan an'anaviy ta'limni mazmunan yangilash va ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni tubdan o'zgartirishga qaratilgan texnologiyalarni didaktik maqsadlariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

³ 2015 - 2021 © Евразийский научный журнал (ISSN: 2410-7255)
Автор(ы): Abdugaffarova Fotima Tursunpo'latovna
Рубрика: Педагогические науки

Журнал: «Евразийский Научный Журнал №2 2020» (февраль, 2020)
Количество просмотров статьи: 1418



- pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiya;
- o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar;
- ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar;
- o'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlashga asoslangan pedagogik texnologiyalar;
- xalq pedagogikasi metodlaridan foydalanishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar;

Endi shu texnologiyalarga qisqacha to'xtalib o'taylik.

a) Pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokratlashtirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiya o'qituvchi va o'quvchi shaxsi o'rtasidagi munosabatlarni mukammallashtirish, o'quvchi shaxsiga individual yondashish, ta'lim-tarbiya jarayonini demokratlashtirish, ta'lim mazmunini insonparvarlik g'oyalari bilan qamrab olishni nazarda tutadi.

b) O'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalar. Bu texnologiya o'tilayotgan fanni o'qitishda o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Bu texnologiyalar guruhni didaktik-o'yin, rivojlantiruvchi muammoli, modulli va kommunikativ ta'lim texnologiyalarini o'z ichiga oladi.

c) Ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini oshirishga

qaratilgan pedagogik texnologiyalar. Mazkur texnologiyalar berilgan fanni o'qitishda ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Ularga dasturli o'qitish, differensial ta'lim, ta'limni individuallashtirish, guruhli va jamoaviy hamkorlik ta'lim texnologiyalari kiradi.

d) O'quv materiallarini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlash asosidagi pedagogik texnologiya. Bu texnologiya o'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlash orqali o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish, aqliy faoliyatni bosqichma-bosqich shakllantirish orqali mustaqil va erkin fikrlashni rivojlantirishni nazarda tutadi.

e) Xalq pedagogikasi metodlaridan foydalanishga qaratilgan pedagogik texnologiya.

Ushbu texnologiya shaxs kamoloti va tabiiy rivojlanish ta'lim-tarbiya jarayonining uzviyligiga asoslangan tarbiya texnologiyalaridan iborat. Fizika fanini o'qitishda mazkur texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil ona Vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular ongida milliy istiqloq g'oyalarini singdirish imkonini beradi. Fan o'qituvchisi o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish maqsadida avval darsning ma'lum bosqichida lokal darajada qo'llashi maqsadga muvofiq. Bunda yangi mavzu avval o'rganilib o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalarini nazorat qilish va baholashda nazorat testlari, turli mashqlar, musobaqalar, trening o'tkaziladi. Shunday qilib, berilgan fanni o'qitishda qaysi texnologiyalardan



foydalanish shu fanning xususiyatiga, mazmuniga va boshqa omillarga bog'liq bo'lib, berilgan mavzu uchun biror bir pedagogik texnologiyadan foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytamizki, "pedagogik texnologiya" o'zida ta'limiy va tarbiyaviy jarayonni qamrab oladi, deb aytish mumkin. Shuning uchun ham u o'zida quyidagi xususiyatlarni namoyon etadi:

1. Pedagogik texnologiya pedagogik jarayonni takomillashtirish, optimallashtirishga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish omili sanaladi.

2. Pedagogik texnologiya didaktik va tarbiyaviy xarakterdagi, shuningdek ta'lim-tarbiya jarayonini samarali, mahoratli tarzda tashkil etish borasidagi nazariy hamda amaliy bilimlar majmui, metodologik fan sifatida namoyon bo'ladi.

3. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoninig umumiy mohiyatini aks ettiruvchi yaxlit jarayondir.

4. Pedagogik texnologiya yo'naltiruvchanlik vazifasini bajaradi, ya'ni u shaxsni rivojlantirish, tarbiyalash, kamol toptirish, shakllantirish uchun xizmat qiladi.

5. Pedagogik texnologiya shaxsiylik xususiyatiga ega bo'lib, muayyan texnologiyalarni ta'lim-tarbiya jarayoniga qo'llashga nisbatan yagona, qat'iy, 18 me'yoriy talablar qo'yilmaydi. Har qaysi pedagog o'zi faoliyat yuritayotgan ta'lim

tarbiya muhitining xususiyatlari, mavjud ichki va tashqi sharoitlarini inobatga lgan holda muayyan texnologik yondashuvni amalga oshirish imkoniyatiga ega.

6. Pedagogik texnologiya o'zida ta'lim, tarbiya va shaxs taraqqiyoti (kamoloti) ravnaqini namoyon etadi. Aytilganlardan ko'rinadiki, pedagogik texnologiyaning asosiy maqsadi komil shaxslarni shakllantirish uchun poydevor bo'lgan pedagogik jarayonni takomillashtirish, insonparvarlashtirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlay olishini ta'minlash, o'qitish jarayonida texnik vositalardan samarali foydalanishga erishishdan iborat. O'qituvchi o'tgan har bir dars boshqa darsdan farq qilishi, bugungi o'tiladigan dars kechagisiga nisbatan mukammal bo'lishi kerak.

Darsni yangi pedagogik texnologiyalar :

– axborot vositalaridan foydalanib;
– ko'rgazmali qurollari yordamida;
– interfaol metodlarni qo'llash orqali;
va h.k.lardan foydalanib tashkil etsak, bu dars o'quvchi ongiga yaxshi yetib boradi va xotirasidan joy oladi. O'quvchining ilmiy dunyoqarashi kengayib, bilim darajasi

1. ortadi. An'anaviy ta'limdan farqli zamonaviy ta'limni tashkil etishdan maqsad ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir.+

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.
2. Pedagogika va psixologiya sohalaridagi innovasiyalar boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish usullari 10-bet
3. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti (Uslubiy qo'llanma)– Qarshi: 2011.



4. 2015 - 2021 © Евразийский научный журнал (ISSN: 2410-7255)

5. Автор(ы): Abdugaffarova Fotima Tursunpo`latovna

Рубрика: Педагогические науки

Журнал: «Евразийский Научный Журнал №2 2020» (февраль, 2020)

Количество просмотров статьи: 1418